
TOSHLOQ TUMANIDA PROBATSIYA NAZORATIDA TURGAN SHAXSLAR UCHUN SAYYOR SUD BO'LIB O'TDI

Bugun tumandagi "Suvboshi" MFYda Jinoyat ishlari bo'yicha Toshloq tuman sudining raisi A. Rahimov raisligida sayyor sud majlisi bo'lib o'tdi.

Unda ichki ishlar organlari probatsiya guruhi hisobida turgan shaxslarning xatti-harakatlariga baho berildi. Aytish kerakki Mamlakatimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson manfaatlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlar natijasida ayniqsa odil sudlovga, adolatli qarorlar qabul qilinishiga erishilib, har bir shaxsning qonuniy manfaatlari himoyalangan.

Jamiyatda bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib tuzalish yo'lga o'tganlarni qo'llab - quvvatlash, ijtimoiy ahvolini yaxshilashga yo'naltirilgan ishlar ham izchillik bilan davom ettirilayapti.

Probatsiya nazoratda turgan, sud tomonidan o'rnatilgan taqiq va cheklovlarni buzmasdan mehnatga halol va vijdonan yondashganligi sababli 10 nafar shaxslarga nisbatan to'plangan hujjatlar ko'rib chiqilib ular jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod etildilar.

Sayyor sud majlisida 2 nafar shaxsga nisbatan jazoni o'tash tartib qoidalarini buzganligi sababli og'irroq jazo turiga almashtirish haqidagi tuman IIB tomonidan kiritilgan taqdimnomalar ko'rib chiqildi.

2024-05-23 14:07:52